



## TO'QIMACHILIK KORXONALARINI EKSPORT FAOLIYATI SAMARADORLIGINING TAHLILI

**To'xtayev Zayniddin Egamnazar o'g'li**

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

ORCID: 0000-0001-8304-1171

[zayniddintoxtayev9@gmail.com](mailto:zayniddintoxtayev9@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot ishida "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalar tomonidan 2018-2023-yillarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va dinamikasi yoritilgan. Shuningdek "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalar bo'yicha asosiy iqtisodiy ko'rsatgichlar taqqoslangan. Emperik tadqiqotlar asosida to'qimachilik korxonalarining eksport geografiyasi yillar va mamlakatlar kesimida tahlil qilingan. Iqtisodiy samaradorlik tushinchasining nazariy masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** samaradorlik, ishlab chiqarish hajmi va dinamikasi, o'sish tendensiyasi, eksport, moliyaviy natijalar, foyda, rentabellik, milliy brendlarni rivojlantirish, resurs tejovchi texnologiyalar, xodimlar manfaatlari.

## АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКСПОРТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

**Тухтаев Зайниддина Эгамназарович**

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

**Абстрактный:** В данной исследовательской работе освещены объем и динамика производства продукции предприятиями объединения «Узтокмачиликсаноат» в 2018-2023 годах. Также были сопоставлены основные экономические показатели предприятий объединения «Узтокмачиликсаноат». На основе эмпирических исследований проанализирована география экспорта текстильных предприятий по годам и странам. Освещены теоретические вопросы понятия экономической эффективности.

**Ключевые слова:** эффективность, объем и динамика производства, тенденция роста, экспорт, финансовые результаты, прибыль, рентабельность, развитие национальных брендов, ресурсосберегающие технологии, интересы сотрудников.

## ANALYSIS OF EFFICIENCY OF EXPORT ACTIVITY OF TEXTILE ENTERPRISES

**Tukhtaev Zayniddin Eganmazar ugli**

Tashkent Textile and Light Industry Institute

**Abstract:** This research work highlights the volume and dynamics of production by enterprises of the Uztokmachilik sanoat association in 2018-2023. The main economic indicators of the enterprises of the Uztokmachilik sanoat association were also compared. Based on empirical research, the geography of exports of textile enterprises by year and country is analyzed. The theoretical issues of the concept of economic efficiency are covered.

**Key words:** efficiency, production volume and dynamics, growth trend, exports, financial results, profit, profitability, development of national brands, resource-saving technologies, employee interests.

## Kirish.

Jahonda to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan talab va ehtiyojning tobora ortib borishi sharoitida tabiiy va ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish, samaradorlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2024-yilda sohaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatiga ko'ra, dunyoning eng katta hajmga ega yirik to'qimachilik mahsulotlari eksportchilari, Pokiston (19 mlrd.doll), Ispaniya (20 mlrd.doll), AQSH (24 mlrd.doll), Italiya (34 mlrd.doll), Turkiya (35 mlrd.doll), Germaniya (40 mlrd.doll), Hindiston (44 mlrd.doll), Vyetnam (43 mlrd.doll), Bangladesh (46 mlrd.doll), Xitoy (55 mlrd.doll) davlatlari orasida o'sish tendensiyalari kuzatilgan. Shuni alohida takidlash kerakki, bugungi kunda jahonda to'qimachilik sanoati korxonalarini raqobatli rivojlanishda natijador iqtisodiy-tashkiliy mexanizmlarni amaliyotda qo'llash va innovatsion samaradorlik dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga qaraganda 2024-yilning yanvar-fevral oylarida qiymati 519,4 mln AQSH dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu ko'rsatgich umumiy eksportning 14,3 % ini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3 % ga oshgan Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari 37,4 % ni, kalava-ip 47,7 % ni tashkil etgan.

Yangi O'zbekistonni parpo etish jarayonida raqobatbardosh to'qimachilik sanoatini tashkil qilish, jahon bozorlarida xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish, qo'shimcha qiymatni shakllantirishning to'liq zanjirini yaratish kabilar yuzasidan islohatlar amalga oshirilmoqda "Ip-kalavani chuqur qayta ishlash 2026-yilga qadar ip-kalavani to'liq qayta ishlashni yo'lga qo'yish", ishlab chiqarish zanjirida mavjud bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgan loyihalar ro'yhatini shakllantirish, tayyor mahsulotlar uchun milliy brendlarni rivojlantirish va ularning eksportini oshirish, jumladan, milliy va xorijiy brenddagi tayyor mahsulot eksport hajmini 2026-yilda 5 mlrd AQSH dollariga yetkazish mo'ljallangan.

## Adabiyotlar sharhi.

To'qimachilik korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy jihatlarini ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar o'rgangan bo'lib jumladan:

Xachaturov ushbu atamani quyidagicha aniqlaydi: «Samaradorlik (va ijtimoiy) iqtisodiy yoki ijtimoiy samaraning unga erishishi uchun zarur bo'lgan xarajatlarga nisbatidir» (Исаев ва бошқ., 2011).

2001-yil, GOST ISO 9000-2001 yilda «Sifat menejmenti tizimi. Asosiy qoidalar va lug'at». U samaradorlik kategoriyasining quyidagi ta'rifini keltiradi: «samaradorlik - erishilgan natija va foydalanilgan resurslar o'rtasidagi munosabatdir» (Райзберг, 2001).

Todaro M.P fikricha: «Iqtisodiy samaradorlik - samarali talabning mavjudligini hisobga olgan holda resurs tejovchi texnologiyalar yordamida mahsulotning maksimal mumkin bo'lgan qiymatini ishlab chiqarish» (Хамел, Прахад, 2002).

K.R.Makkonell, S.L.Bryular tomonidan «Ekonomiks» kitobida unga quyidagi ta'rif keltirilgan: «Iqtisodiy samaradorligi ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan va qandaydir mahsulot natijasida olinadigan nodir resurslar birliklari soni o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi» (Қосимов, 2002).

Shuningdek, R.Pindayk va D.Rubenfildlar ishlab chiqarishga sarflangan mablag'lar samaradorligini resurs - mehnat va kapitalga bog'liq ravishda talqin qilishgan. Ular «agar bitta tovarni ishlab chiqarish boshqa ishlab chiqarishni kamaytirmagan holda amalga ohsa, u holda ishlab chiqarish samarali hisoblanadi», - deb tarif berganlar (Попреп, 2005).

Pol Xeynning fikricha, samaradorlik ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan resurslar miqdori bilan har qanday talab qilinadigan mahsulot miqdori o'rtasidagi munosabatlarni tavsiflaydi (Муромцев и др. 2016).

Samaradorlik masalalariga O'zbekistonlik olimlar ham o'z munosabatlarini bildirishgan. Xususan, A.Abdukarimov, M.Q.Pardaev kabi olimlarning fikricha, «samaradorlik - bu sodir bo'layotgan biror iqtisodiy jarayonning qanday natija bilan yakunlanganligini ifodalaydigan

tushuncha. «Samara» va «samarador» tushunchalari mutlaq ko'rsatkich bo'lsa, «samaradorlik» nisbiy ko'rsatkichdir», deb izohlashgan (Плахова, Анурина и др., 2009).

Yana bir iqtisodchi olim Abdullaevning (1998) fikricha, «samaradorlik nisbiy ko'rsatkich o'lib, uni makrodarajada hisoblashda resurslar, xarajatlar va olingan samara (natija)ga asoslanadi.

Abduraxmonovning (2004) fikricha, «samaradorlik korxonalar resurslaridan foydalanishining ham sifat, ham miqdor ko'rsatkichlarini, unumdorlik esa faqat miqdor ko'rsatkichlarini ifodalaydi».

Azimovning (2022) fikricha, iqtisodiy samaradorlik deganda natijaning tashkilotning maqsadlariga mos keladigan yuqori moliyaviy ko'rsatkichlarga erishish bilan tavsiflanadigan sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun muqobil sharoitlarni yaratishga bog'liq bo'lgan tashkilotning faoliyati natijasining unga erishishiga sarflangan xarajatlariga nisbati tushuniladi.

Shunday qilib, ta'rifning ko'pchilik talqinlari quyidagiga yo'naltirilgan: samaradorlik - erishilgan samaraning (natijaning) unga erishish xarajatlariga nisbati. Ma'lumki, fanning ko'plab sohalarida samara maqsadga muvofiq jarayonning istalgan natijasi, deb qaraladi.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada tadqiqot jarayonida tizimli va iqtisodiy tahlil, kompleks baholash, guruhlash, ekspert baholash, prognozlash va statistik usullardan foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, kompleks baholash, statistik tahlil, kabi tadqiqot usullaridan keng foydalanish natijasida "O'zto'qimachilik sanoat" tarkibidagi korxonalarining 2018-2023-yillardagi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va dinamikasi tahlil qilindi. Shuningdek "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalarining 2018-2023-yillardagi eksport hajmi dinamikasi (ming.doll) va geografiya tahlil qilinganligini ko'rishimiz mumkin.

### 1-jadval

#### "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi to'qimachilik korxonalarining mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va dinamikasi

Yillar	Kalava-ip (ming tonna)	Tayyor mato (mln.kv.m)	Trikotaj gazlama (ming tonna)	Tikuv trikotaj mahsulotlari (mln.dona)	Paypoq mahsulotlari (mln.juf)
2018	403,7	302,6	69,9	452,3	102,0
2019	448,9	348,9	89,9	536,0	135,0
2020	515,8	380,7	112,3	622,4	184,8
2021	592,7	415,4	140,4	722,8	252,9
2022	669,6	450,1	168,5	823,2	321
2023	1314	470,5	170,5	2010,4	920

**Manba:** "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadval ma'lumotlaridan xulosa qilishimiz mumkinki 2018-2023-yillar oralig'ida kalava-ip mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4,3 marta, tayyor mato ishlab chiqarish 1,8 martaga, trikotaj gazlama ishlab chiqarish hajmi 4,1 martaga, tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi esa 1,6 martaga va paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi esa 9,7 mataga ortib borishi kuzatilgan. Shuningdek, 2018-2023-yillar davomida respublikamiz miqyosida, ip, tayyor mato shuningdek trikotaj mato hamda tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ham o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda.

## 2-jadval

**“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibidagi to‘qimachilik korxonalar bo‘yicha asosiy iqtisodiy ko‘rsatgichlar.(mlrd.so‘m)**

№	Ko‘rsatgichlar nomi	Yillar					
		2018	2019	2020	2021	2022	2023
1	To‘qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish	7620,3	10699,7	17135,8	22656,6	29956,1	35070
2	To‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish	758,8	1113,7	1936,6	2738,4	3872,1	5379
3	To‘qimachilik mahsulotlariga ishlov berish	84,7	355,7	151,4	275,2	500,1	647,7

**Manba:** “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

2023-yil yanvar-iyun oylari yakuni bo‘yicha 56,5 mln AQSH dollarlik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 16,6 % ini tashkil qilgan, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 76,0 % ga kamaydi. Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to‘qimachilik mahsulotlari-55,6 % paxtadan gazlamalar -10,4 % va trikotaj mato-16,4% asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 139 turdagi to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 25 ta davlatiga eksport qilingan.

## 3-jadval

**“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2018-2023-yillardagi eksport hajmi va dinamikasi, (ming.doll) (To‘xtayev, 2023)**

№	Davlat nomi	2018	2019	2020	2021	2022	2023	o‘shish
1	Rossiya	439 560,0	553 809,3	616 066,6	682 768,6	951 732,2	100 524,2	21,6 %
2	Xitoy	172 929,5	297 667,9	402 059,7	403 441,4	597 436,4	713 436,4	34,5 %
3	Turkiya	101 650,7	119 260,8	198 638,2	212 212,8	485 849,3	694 524,8	48 %
4	Koreya	29 098,4	14 441,1	6 347,6	5 664,4	6 209,4	8 304,7	21,3 %
5	Qirg‘iziston	27 833,6	70 593,1	92 800,5	284 451,8	395 046,7	416 046,7	14,3 %
6	Qozog‘iston	22 721,2	44 658,8	41 600,7	42 716,8	51 133,2	73 256,7	22,5 %
7	Bangladesh	21 060,7	19 033,6	12 335,9	10 737,9	9 935,5	10 847,2	47,2 %
8	Polsha	20 335,8	23 005,8	26 573,6	43 437,0	65 693,5	82 687,6	32,0 %
9	Belorussiya	15 885,5	23 723,8	24 055,2	17 414,5	24 061,5	31 507,3	15,5 %
10	Eron	11 751,8	17 503,6	42 954,4	20 604,2	39 878,5	45 321,7	33,9 %
11	Ukraina	10 785,5	21 836,6	31 678,0	34 251,2	53 329,2	57 645,5	49,5 %
12	Italiya	3 599,3	7 762,4	11 479,8	10 193,7	32 953,0	59 783,5	91,5 %
13	Germaniya	1 942,1	4 420,7	7 319,7	6 934,4	12 471,1	36 541,4	64,1 %
14	Yegipey	1 013,1	3 078,8	12 007,1	18 175,2	30 655,9	41 700,2	30,1 %
15	Pokiston	672,1	4 922,6	10 033,5	16 517,9	59 269,4	87 603,6	88,3 %
16	Ozarbayjon	578,1	6 075,9	10 915,5	12 468,3	18 738,2	24 314,4	32,6 %
17	Tojikiston	412,9	3 596,0	7 263,2	13 369,3	11 647,2	18 902,1	28,0 %
18	Boshqa davlatlar	30833,6	55 242,2	42 238,0	50 336,1	85 151,2	93 554,1	32,4 %

Quyidagi “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibiga kiruvchi korxonalarining iqtisodiy ko‘rsatgichiga ko‘ra, 2018-2023-yillar davomida to‘qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish 6 martaga, to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 11 martaga va to‘qimachilik mahsulotlariga ishlov berish 13,3 martaga ortganligini ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston 2024-yilda qiymati 519,4 mln AQSH dollar miqdoridagi to‘qimachilik mahsulotlarini eksport qilgan. Bu ko‘rsatgich umumiy eksportning 14,3 % ni tashkil etgan. O‘tgan yilning yilning mos davriga nisbatan 3 % oshgan. Tayyor to‘qimachilik mahsulotlar



37,4 %, kalava-ip 47,7%, asosiy ulishni egallagan. 2024-yilning yanvar-fevral oylarida 496 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 52 ta davlatiga eksport qilingan. To'qimachilik mahsulotlari tarkibida: kalava-ip-247,8 mln, tayyor to'qimachilik mahsulotlari-194,4 mln, trikotaj mato-42,8 mln, gazlamalar-26,8 mln, paypoq mahsulotlari-7,7 milliontani tashkil etdi.

### Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalariga ko'ra "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibiga kiruvchi korxonalarda samaradorlikni oshirishda ishlab chiqarish faoliyatini diversifikatsiya qilish, tashqi bozorlarga chiqish va mahsulotlarni sotish borasida eksport dasturini amalga oshirish, valyuta daromadlari tushumini ta'minlash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni va ish o'rinlarini tashkil etish, Jahon bozorida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari bilan teng raqobatlasha oladigan va keyingi bosqichda, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning lokomotiviga aylanishiga mumkin bo'lgan to'qimachilik tarmog'ini jadal rivojlantirish hamda aniq yo'naltirilgan xolda qo'llab quvvatlashni ta'minlash zarur. "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibiga kiruvchi to'qimachilik korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish jarayonida strategik vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun iqtisodiy ko'rsatgichlarni baholash va ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish hamda tahlil qilishning ilmiy asoslangan bazasini takomillashtirish, resurslardan to'liq foydalanishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish birinchi darajali ahamiyatga egadir.

### Adabiyotlar/Literatura/Reference:

- Абдуллаев Ё.А. (1998) Макроиқтисодий статистика. –Т.: Меҳнат, Б.210-211.
- Абдурахмонов Қ.Х. (2004) Меҳнат иқтисоди ва социологияси. – Т., Б.212.
- [http://qxjournal.uz/load/jurnal\\_2023/agro\\_ilm\\_2023\\_jil\\_makhsus\\_son\\_2\\_93\\_juklab\\_olish/12-1-0-528](http://qxjournal.uz/load/jurnal_2023/agro_ilm_2023_jil_makhsus_son_2_93_juklab_olish/12-1-0-528).
- To'xtayev Z. (2024) TO 'QIMACHILIK KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH TIZIMI VA SAMARADORLIK //Iqtisodiyot va ta'lim. – Т. 25. – №. 2. – С. 99-102.
- Tukhtaev Zayniddin Eganmazar ugli () Manufacture of Textile Products Compliant with Foreign Requirements on the Basis of ISO Standards Get Organized.
- Zayniddin TO'XTAYEV (2023), SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI TATBIQ ETISHNING ASOSIY BOSQICHLARI.
- Азимова Ф.П. (2022) Тўқимачилик саноати корхоналари фаолияти самарадорлигини бошқаришни такомиллаштириш: Монография / –Т.: -152б.
- Исаев Р.А. ва бошқалар. (2011) Ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва бизнес-режа (И ва ИИ қисм). –Т.: Тафаккур, -516 б.
- Қосимов Ғ.М. (2002) Менежмент: Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. –Т.: Ўзбекистон, – 368 б.
- Муромцев Д.Ю., Муромцев Ю.Л., Тютюнник В.М., Белоусов О.П. (2016) Экономическая эффективность и конкурентоспособность: учебное пособие / Д.Ю. Муромцев, Ю.Л. Муромцев, В.М. Тютюнник, О.П. Белоусов. – Тамбов: Изд-во Тамб. гос. ун-та, – 96 с.
- Плахова Л.В., Анурина Т.М., Легостаева С.А. и др. (2009) Основы менеджмента: Учеб.пособие. – М.: КНОРУС, – 496 с
- Портер М. (2005) Конкуренция / М.Портер; пер. с англ. О.Л.Пелявского [и др.]. – Исправ. изд. –М.: Вильямс, – 602 с
- Райзберг, Б.А. (2001) Хозяйственный механизм [Электронный ресурс] / Б.А. Райзберг, Л.Ш. Лозовский, Е.Б. Стародубцева. – Режим доступа: <http://www.smartcat.ru/Referat/atyelramnz.shtml>.
- Хамел Г., Прахад К.К. (2002) Конкурируа за будущее. Создание рынков завтрашнего дня / Пер. с англ. - М.: Олимп-Бизнес, - 288с.